

**TARBIYA FANI KONTEKSTIDA “RIYOZUS SOLIHIN” HADISLARINING
MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANI MUSTAHKAMLASHDAGI TA’LIMIY-
POTENSIALINI TADQIQ ETISH**

Axmedov Boburjon Vasikovich

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, Boshlang‘ich ta’lim
pedagogikasi kafedrası o‘qituvchisi. <https://orcid.org/0009-0000-5274-8916>*

E-mail: boburjonahmedov993@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.11.2025

Revised: 30.11.2025

Accepted: 01.12.2025

KALIT SO‘ZLAR:

*Hadislar, Tarbiya
fani, axloqiy tarbiya,
iymoniy mas’uliyat,
ma’naviy yetuklik,
pedagogik yondashuv*

*Ushbu maqola “Riyozus Solihin” hadislarida aks
etgan axloqiy va iymoniy tarbiya tamoyillarini
tarbiya faniga mos ravishda tadqiq etadi. Imom
Navaviy hadislarida ta’kidlangan uch bosqichli
yondashuv – qo‘l, til va qalb – yoshlarning axloqiy
ongini shakllantirish, ijtimoiy mas’uliyatni
rivojlantirish va ma’naviy yetuklikka erishish uchun
muhim pedagogik mexanizm sifatida tahlil qilinadi.
Maqolada hadislarini amaliy pedagogik jarayonlarda
qo‘llash imkoniyatlari, shuningdek, yomon illatlar va
odatlariga qarshi faol tarbiyaviy pozitsiya, muloqot
orqali axloqiy tarbiya va ichki ma’naviy immunitetni
shakllantirish usullari ko‘rib chiqiladi.*

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonlari va tezkor ilmiy-texnik rivojlanish davrida yosh avlodni tarbiyalash, ularning axloqiy-ruhiy va iymoniy yetukligini shakllantirish dolzarb vazifa sifatida yuzaga chiqmoqda. Jamiyatning ma’naviy barqarorligi va har bir fuqaroning ijtimoiy mas’uliyati bevosita ta’lim-tarbiya tizimi orqali shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, tarbiya fanida axloqiy va iymoniy mas’uliyatni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu jarayonda davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektorda quyidagilarni ta’kidladi:

“Iqtisodiyot jamiyat hayotiy faoliyatini ta’minlovchi organizm bo‘lsa, ma’naviyat uning yuragi va qalbidir.” Davlat rahbarining ta’kidlashicha, Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida mamlakat ikkita asosiy ustunga tayangan holda rivojlanmoqda. Birinchisi - bozor

=====

tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchisi esa - ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi va milliy qadriyatlariga tayanadigan kuchli ma'naviyatdir.

Prezidentning qayd etishicha, Yangi O'zbekiston mafkurasi mehr-oqibat, insonparvarlik va umuminsoniy tamoyillarga asoslanadi. Mafkura tushunchasi, avvalo, aql-idrokni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalashni anglatadi. Ushbu qadriyatlar zamirida xalqimizning ming yillik hayotiy tajribasi, ma'naviy g'oyalari va qadriyatlari mujassamdir. Shuningdek, davlat rahbari milliy tarixni milliy ruhda o'qitishning zarurligini alohida urg'ulab, quyidagilarni bildirdi:

“Milliy tarixni milliy ruhda o'rgatish kerak. Aks holda tarbiyaviy samara bo'lmaydi. Yoshlarimizni tarixdan saboq olishga, xulosa chiqarishga, tarix ilmi va tarixiy tafakkurni chuqur anglashga o'rgatishimiz zarur.”⁴

Islom dini va uning boy ma'naviy merosi, xususan, Imom Navaviy tomonidan “Riyoziy Solihin” asarida keltirilgan hadislar, yoshlarni axloqiy ong, ijtimoiy mas'uliyat va ichki ruhiy sezgirlik bilan tarbiyalashda muhim ilmiy-pedagogik manba hisoblanadi. Ushbu hadislar uch bosqichli yondashuvni - qo'l bilan amaliy o'zgarish, til orqali og'zaki nasihat va qalb orqali ichki e'tiroz - taklif qiladi. Bu yondashuv nafaqat diniy nuqtai nazardan, balki zamonaviy pedagogika va tarbiya konsepsiyasi doirasida ham yoshlarning ma'naviy-axloqiy yetukligini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Shuningdek, yosh avlodni axloqiy ong va iymoniy mas'uliyatga yo'naltirishda ushbu hadislarini pedagogik jarayonga integratsiya qilish, ularni o'quv jarayonida faol ishtirok etishga, yomon odatlar va illatlarga qarshi to'g'ri pedagogik pozitsiya olishga, ijobiy muloqot va ichki ma'naviy immunitetni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, “Riyoziy Solihin” hadislarining tarbiya fanidagi ta'limiy-potensialini yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishning ilmiy asoslangan mexanizmi sifatida e'tiborga loyiqdir.

Ushbu tadqiqotning maqsadi - hadislar pedagogikasini tarbiya faniga moslab tadqiq etish, ularning yoshlar ma'naviyati va axloqiy ongini shakllantirishdagi ta'limiy va amaliy ahamiyatini aniqlashdir. Tadqiqot natijalari tarbiya darslarida hadislar orqali axloqiy tarbiyaviy metodlarni samarali qo'llash bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Imom Navaviy o'zining mashhur “Riyoziy Solihin” (“Solihlar gulshani”) asarida keltirgan quyidagi hadisi sharif - insoniy jamiyatda axloqiy nazorat va ma'naviy ongini shakllantirishda benazir tarbiyaviy mezon hisoblanadi. Rasululloh alayhissalom shunday marhamat qilganlar:

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu jarayonda davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor.

“Qaysi biringiz yomon ishni ko‘rsa, uni qo‘li bilan o‘zgartirsin. Agar kuchi yetmasa, tili bilan o‘zgartirsin. Agar bunga ham kuchi yetmasa, qalbi bilan (shu ishni yomon deb bilsin). Bu esa iymonning eng zaif darajasidir”. (Imom Muslim rivoyati).⁵

Ushbu hadisda tarbiya nazariyasi va shaxsiy mas‘uliyat tamoyillari chuqur yoritilgan bo‘lib, u zamonaviy pedagogika, ayniqsa axloqiy-tarbiyaviy ta‘lim konsepsiyasi bilan uyg‘unlashib ketadi. Hadisda zikr qilingan uch bosqich - qo‘l, til va qalb - bu insonning axloqiy javobgarligi va ijtimoiy islohotdagi roli ifodasi sifatida talqin qilinadi.

1. “Qo‘li bilan o‘zgartirsin” - amaliy aralashuv bosqichi.

Bu bosqichda inson yomonlikni faqat tanqid qilish bilan emas, balki faol harakat bilan to‘xtatish mas‘uliyatiga ega ekanini bildiradi. Tarbiya fanida bu holat ijtimoiy faol fuqaro konsepsiyasiga mos keladi. O‘qituvchi, ota-ona yoki yetuk shaxs bola yoki o‘quvchi atrofidagi yomon illatlarni amaliy tarzda yo‘q qilishga intiladi: muhitni tozalaydi, noto‘g‘ri axloqni to‘xtatadi, jazo-tuzatish mexanizmlarini ishga soladi. Bu bosqich xatti-harakat orqali tarbiya usulining amaliy ko‘rinishidir.

2. “Tili bilan o‘zgartirsin” - og‘zaki tanqid va nasihat bosqichi.

Tarbiya jarayonida bu bosqich ma‘naviy-ma‘rifiy tushuntirish, aqliy tarbiya yo‘li bilan yomonlikni yo‘q qilishga intiladi. O‘qituvchining yoki tarbiyachining bolaga nasihat qilishi, muammoni so‘z bilan tushuntirishi - bu aynan hadisda til bilan aralashuv darajasidir. Bu yondashuv muloqot orqali tarbiya metodi doirasida, psixologik va ijtimoiy pedagogik nuqtai nazardan muhim o‘rin tutadi.

3. “Qalb bilan yomon deb bilish” - ichki e‘tiroz va iymoniy pozitsiya.

Bu daraja insonning yuragidagi iymon, halollik va axloqiy ong darajasini aks ettiradi. Har bir pedagog yoki ota-ona biladiki, har doim ham yomonlikni ochiqdan-ochiq tanqid qilish imkoniyati bo‘lmazligi mumkin. Bunday holatda ichki norozilik, yomonlikni qalban inkor etish ham iymon alomati sifatida qadrlanadi. Bu jihatdan qaraganda, hadis axloqiy sezgirlik va ruhiy tarbiyaning zarurligini uqtiradi.

Rasululloh alayhissalom hadislarida mujassam bo‘lgan bu uch bosqichli yondashuv - axloqiy tarbiyaning universal modelidir. U pedagogikada muhim o‘rin tutadigan onglilik, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv va ruhiy sezuvchanlik kabi tushunchalarga to‘liq mos keladi. Bu hadis, ayniqsa, yosh avlodni ma‘naviy yetuklikka, axloqiy hushyorlikka va ijtimoiy mas‘uliyatga o‘rgatishda mustahkam ilmiy-ma‘naviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yoshlar tarbiyasida bu hadisni asos qilib olgan holda quyidagi pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish mumkin:

- Yomon odat va illatlarga nisbatan faol pozitsiyada bo‘lishga o‘rgatish;
- Til tarbiyasi orqali ijobiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish;

⁵ O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiya markazi. O‘zbekiston musulmonlari idorasi Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. Imom Navaviy. Riyozus solihiyin sharhi: Yaxshilikka buyurish va yomonlikdan qaytarish haqida. 23-bob. 384-385 betlar. “Hilol nashr”. Toshkent-2023.

- Ichki ma'naviy immunitetni rivojlantirish orqali iymoniy barkamollikka yo'naltirish. Metodlar (Methods). Tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi:
- Tarkibiy-mantiqiy tahlil - hadis mazmunining pedagogik jarayondagi o'rni va funksiyalarini aniqlash;
- Pedagogik-komparativ tahlil – hadisda keltirilgan tamoyillarni zamonaviy tarbiya konsepsiyalari bilan solishtirish;
- Hermenevtik sharh - "Riyoziy Solihin"dagi hadis mazmunining ma'naviy ta'lim nuqtai nazaridan talqini;
- Nazariy umumlashtirish - uch bosqichli yondashuv asosida axloqiy tarbiya modeli elementlarini tizimlashtirish.

Natijalar (Results). Tahlil natijalariga ko'ra, hadisda bayon etilgan uch bosqich - qo'l, til va qalb bilan yomonlikni bartaraf etish - tarbiya fanining asosiy tamoyillari bilan to'la uyg'unlikda ekani aniqlandi.

1. "Qo'li bilan o'zgartirsin" - amaliy-aralashuv bosqichi

Bu daraja yomonlikni bartaraf etishda faoliyatga yo'naltirilgan amaliy harakatni anglatadi. Pedagogik jihatdan u ijtimoiy faol shaxs modeliga, xulq-atvor orqali tarbiya metodiga hamohangdir. O'qituvchi yoki tarbiyachi tomonidan nojo'ya xatti-harakatlarni to'xtatish, muhitni sog'lomlashtirish, intizomiy mexanizmlarni qo'llash kabi choralar ushbu bosqichning mazmuni ko'rinishidir.

2. "Tili bilan o'zgartirsin" - og'zaki nasihat va ma'rifiy izoh bosqichi

Mazkur daraja nutqiy ta'sir, maslahat, tushuntirish va ma'naviy-ma'rifiy suhbatlar orqali yomonlikni bartaraf etishni nazarda tutadi. Bu yondashuv tarbiya metodlaridan biri bo'lgan muloqot asosidagi pedagogik ta'sirning klassik ko'rinishidir. Psixologik-pedagogik nuqtai nazardan, bolada axloqiy fikrlash, tahlil, tushunish va baholash jarayonini shakllantirishga xizmat qiladi.

3. "Qalb bilan yomon deb bilish" - ichki e'tirof va iymoniy sezgirlik bosqichi

Bu eng nozik, ruhiy-ma'naviy daraja bo'lib, shaxsning ichki axloqiy immunitetini ifodalaydi. O'quvchi yomonlikni tan olmasa-da, uni qalban inkor etishi axloqiy sezgirlikning rivojlanganini bildiradi. Ushbu bosqich tarbiyada ongli munosabat, ruhiy poklik va ichki mas'uliyatni shakllantirishning muhim ko'rinishidir.

Muhokama (Discussion). Olingan natijalar "Riyoziy Solihin" hadislarida mujassam bo'lgan uch bosqichli modelning zamonaviy tarbiya jarayonida qo'llanishi yuqori samaradorlikka ega ekanini ko'rsatdi. Mazkur model:

- axloqiy tarbiyaning amaliy, kognitiv va ruhiy komponentlarini uyg'unlashtiradi;
- shaxsni ijtimoiy mas'uliyatli, axloqan hushyor, ma'naviy barkamol inson sifatida shakllantirishga xizmat qiladi;
- pedagogning ta'limiy jarayondagi roli va ta'sir mexanizmlarini uch pog'onali tamoyil asosida yanada aniq belgilash imkonini beradi.

Shuningdek, hadis asosida ishlab chiqilgan quyidagi tavsiyalar o'quvchilarda axloqiy madaniyatni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin:

- yomon odat va illatlarga nisbatan faol va ongli pozitsiya egallashni o'rgatish;
- ijobiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish orqali til tarbiyasini kuchaytirish;
- ichki axloqiy immunitet, ruhiy poklik va iymoniy barqarorlikni mustahkamlash.

Mazkur yondashuv tarbiya jarayonida diniy-ma'rifiy manbalardan foydalanishning ilmiy asoslarini kengaytiradi hamda yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashda samarali metodologiya bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa (Conclusion). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Imom Navaviyning "Riyozi Solihin" asarida keltirilgan hadislar, xususan, yomonlikka nisbatan qo'l, til va qalb bilan munosabat bildirish haqidagi mashhur hadis, zamonaviy tarbiya nazariyasining asosiy tamoyillari bilan chuqur uyg'unlashadi. Ushbu hadisda mujassam bo'lgan uch bosqichli model — amaliy aralashuv, og'zaki-ma'rifiy ta'sir va ichki axloqiy e'tiqod — ma'naviy-axloqiy tarbiyaning kompleks, tizimli va bosqichma-bosqich olib borilishini ta'minlaydi.

Mazkur yondashuv tarbiya fanining nazariy asoslarini boyitibgina qolmay, balki o'quvchi-yoshlarning shaxsiy mas'uliyatini, axloqiy sezgirligini va ijtimoiy faol pozitsiyasini shakllantirishda samarali metodologiya sifatida qo'llanilishi mumkin. Hadisning tarbiyaviy-potensial shundan iboratki, u bir vaqtning o'zida:

- xulq-atvorni tartibga soluvchi amaliy mexanizmni;
- muloqotga asoslangan ma'naviy-ma'rifiy ta'sir vositalarini;
- shaxsning ichki ruhiy-axloqiy immunitetini mustahkamlovchi omillarni mujassamlashtiradi.

Tadqiqot asosida aniqlanishicha, "Riyozi Solihin" hadislaridan tarbiya jarayonida foydalanish yoshlarning ma'naviy ongini mustahkamlaydi, axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi va iymoniy pozitsiyasini shakllantiradi. Shuningdek, ushbu yondashuv o'qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalar uchun axloqiy tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etishda samarali metodik yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, hadis asosidagi uch bosqichli modelning tarbiyaviy ahamiyati yuqori bo'lib, uni ta'lim tizimida, xususan, tarbiya fanining mazmuni, metodlari va amaliy jarayoniga integratsiya qilish yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu jarayonda davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor.

2. O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiya markazi. O‘zbekiston O musulmonlari idorasi Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. Imom Navaviy. Riyozus solihiyin sharhi: Yaxshilikka buyurish va yomonlikdan qaytarish haqida. 23-bob. 384-385 betlar. “Hilol nashr”. Toshkent-2023.

3. Tarbiya fani. Baxt va muvaffaqiyat sirlari. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf o‘quvchilari uchun darslik. Toshkent «O‘zbekiston» 2020.